XALQ DEPUTATLARI DOʻSTLIK TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

Do'stlik tuman Do'stlik ko'chasi 16 uy +998 99 686 5523 dustlikkengash@mail.ru

2024-yil 27-dekabr VII-4-027-3-47-K/24 Doʻstlik tumani

Doʻstlik tumani boʻyicha 2025-yilda qishloq xoʻjaligiga moʻljallanmagan yerlar uchun yuridik va jismoniy shaxslarning yer solig'i stavkalariga hamda yuridik shaxslar uchun mol-mulk solig'ini hisoblashda koʻchmas mulklarning 1 kv.metr uchun belgilanadigan minimal miqdoriga oʻzgartirish kiritish toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 412, 429 va 437-moddalari, tuman soliq inpeksiyasining 2024-yil 5-dekabrdagi P-03389-sonli xati hamda Oʻzbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi qonunining 6 va 25-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Oʻzbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga asosan Doʻstlik tumanida yuridik shaxslarning qishloq xoʻjaligiga moʻljallanmagan yerlari bazaviy soliq stavkasi 1 gektar uchun mutlaq miqdori 49,5 mln. soʻm hamda jismoniy shaxslarga 1 kv.metr uchun bazaviy soliq stavkasining mutlaq miqdori 475,2 mln soʻm. minimal miqdor belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman iqtisodiyot va moliya boʻlimi hamda tuman soliq inspeksiyasining hududlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining kelgusi yil uchun belgilangan mahalliy budjet prognozidan kelib chiqib, tuman boʻyicha 2025-yilda yuridik va jismoniy shaxslarning bazaviy yer solig'i stavkalarining mutlaq miqdorlariga nisbatan kamaytiriluvchi va oshiriluvchi koeffisientlarni qoʻllash hamda tumanlardagi yuridik shaxslar uchun mol-mulk solig'ini hisoblashda koʻchmas mulklarga 1 kv. metr uchun belgilanadigan minimal miqdorga nisbatan kamaytiriluvchi koeffisientlarni qoʻllash boʻyicha takliflari inobatga olinsin.

3. Tumanning iqtisodiy salohiyati va rivojlanishiga qarab 2025-yil uchun yuridik shaxslarning qishloq xoʻjaligi moʻljallanmagan yerlarining 1 gektariga belgilangan yer solig'ining bazaviy soliq stavkalariga qoʻllaniladigan koeffisientlar miqdori va soliq stavkalari va jismoniy shaxslar boʻyicha (dehqon

xoʻjaligini yuritish uchun berilgan qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlardan tashqari) 2025-yilda tuman uchun mutlaq miqdorda 1 kv. metr uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga qoʻllaniladigan koeffisientlar va soliq stavkalari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Xalq deputatlari tuman Kengashi mahalliy budjet prognozlarini inobatga olib, ilovaga asosan qoʻllaniladigan koeffisientlarga nisbatan tegishli hududda joylashgan mahalla, koʻcha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha miqdorda kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisientlarni belgilash vakolati inobatga olinsin.

5. Tuman soliq inspeksiyasi 2025-yil uchun yuridik shaxslarning (yirik soliq toʻlovchilardan tashqari) mol-mulkiga solinadigan soliqni ushbu qaror bilan, qishloq xoʻjaligida moʻljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan yer soligʻining xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tasdiqlanadigan stavkalar asosida hisoblanishi va belgilangan tartibda undirilishini ta'minlasin.

6. Ushbu qaror “Doʻstik hayoti” gazetasida rasmiy e'lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Qaror 2025-yil 1-yanvaridan boshlab kuchga kiradi.

8. Xalq deputatalari Doʻstlik tuman kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi “Doʻstlik tumanida qishloq xoʻjaligiga moʻljallanmagan jismoniy va yuridik shaxslarning yer soligʻi uchun 2024-yilga belgilangan bazaviy soliq stavkalarini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi VI-47-136-3-47-K/23-sonli qarori oʻz kuchini yoʻqotgan deb hisoblansin.

9. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari boʻyicha doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining birinchi oʻrinbosari A.Latifov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi DARVISHEV SHAVKAT TURAYEVICH

Xalq deputatlari Do‘stlik tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-4-027-3-47-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha mahallalar kesimida yer solig‘i stavkalari uchun 2025 yilda belgilangan koeffitsientlar

T/r	Mahalla nomi	**Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari. 1 ga uchun**		**Jismoniy shaxslar bo‘yicha. 1 kv.m uchun** *(turar joylar uchun belgilangan o‘sish me’yoridan oshmagan holda)*	
		Koeffitsient (0.7 dan 3 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025 yil uchun (so‘mda)	Koeffitsient (0.7 dan 3 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025 yil uchun (so‘mda)
1	A.Navoiy MFY	1.25	61 875 000.00	0.83	394.42
2	Bog‘zor MFY	0.84	41 580 000.00	0.78	370.66
3	Bunyodkor MFY	0.84	41 580 000.00	0.75	356.40
4	G‘.G‘ulom MFY	1.25	61 875 000.00	0.83	394.42
5	Kahramon MFY	0.84	41 580 000.00	0.75	356.40
6	Manas MFY	0.84	41 580 000.00	0.75	356.40
7	Mevazor MFY	0.84	41 580 000.00	0.75	356.40
8	Navro‘z MFY	0.84	41 580 000.00	0.75	356.40
9	Oltin Vodiy MFY	0.84	41 580 000.00	0.75	356.40
10	Sanoatchilar MFY	1.25	61 875 000.00	0.83	394.42
11	Saritepa MFY	0.84	41 580 000.00	0.75	356.40
12	Chinobod MFY	1.25	61 875 000.00	0.83	394.42